O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, o‘quv va metodik ishlar bo‘yicha prorektori
_____ D.Z.Dustov
“___” _____ 2026 y.

“Maktabgacha va inklyuziv ta’lim metodikasi” kafedrasi

“ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA QO‘YILADIGAN DAVLAT TALABLARI VA DAVLAT DASTURINI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI”

o‘quv modulidan
O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Ta’lim turi: **Malaka oshirish**
Malaka oshirish muddati: **1 oy (100 soat)**

TOSHKENT-2026

Annotatsiya: Mazkur o‘quv-uslubiy majmua kadrlarni qayta tayyorlash va maktabgacha ta’lim tashkilotlari mutaxassislarini tayyorgarligiga qo‘yiladigan davlat talablari asosida malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni taqozo etadi.

Tuzuvchilar:	MTTDMQTMOI “Maktabgacha va inklyuziv ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti M.E.Rustamova
	MTTDMQTMOI “Maktabgacha va inklyuziv ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi N.M.Uralova
Taqrizchilar:	Xalqaro Nordik Universiteti, Psixologiya va maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi, p.f.f.d (PhD) D.A.Sharafutdinova
	MTTDMQTMOI “Maktabgacha va musiqiy ta’lim” kafedrasi mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent N.S.Muminova
Malaka oshirish toifasi:	Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlari.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Ilmiy kengashining 2026-yil 29 yanvardagi 1-sonli qarori bilan ma’qullangan.

MUNDARIJA

I.	**KIRISH**	**4**
II.	**TEXNOLOGIK XARITA**	**6**
III.	**MA’RUZA MATN VA O‘QUV MATERIALLAR**	**7**
IV.	**O‘Z-O‘ZINI TEKSHIRISH UCHUN TEST SAVOLLAR**	**25**
V.	**MODUL YUZASIDAN MALAKA ISHI MAVZULARI**	**27**
VI.	**TARQATMA MATERIALLAR**	**28**
VII.	**ATAMALAR IZOHLI LUG‘ATI**	**35**
VIII.	**FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR**	**36**

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” O‘RQ 595-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4312-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 391-son qarori, 2020 yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-son qarori, 2021 yil 11 avgustdagi “Reabilitatsiya markaziga ega bo‘lgan davlat ixtsoslashtirilgan ko‘p tarmoqli maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 510-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2018 yil 21 noyabrdagi “Maktabgacha ta’lim muassasasining kuzatuv kengashi haqidagi namunaviy nizomini tasdiqlash to‘g‘risida” 2-MX – sonli buyrug‘i, 2018 yil 6 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim muassasalarining Kuzatuv Kengashlari faoliyatini tashkil etish haqida” 239-sonli buyrug‘i, 2021 yil 12 iyuldagi “Maktabgacha ta’lim tizimida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada rivojlantirish to‘g‘risida” 128-sonli buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024 yil 8 noyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida malaka oshirishning “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida” 362-sonli buyrug‘i, 2025 yil 29 avgustdagi “MTT pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 323-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida ushbu o‘quv-uslubiy majmua ishlab chiqilgan.

Shuningdek, mazkur o‘quv-uslubiy majmua kadrlarni qayta tayyorlash va maktabgacha ta’lim tashkilotlari mutaxassislarini tayyorgarligiga qo‘yiladigan davlat talablari asosida malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni taqozo etadi.

“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va Davlat dasturini joriy etishning samarali usullar” modulining o‘quv-uslubiy majmuasi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning mazmun va mohiyatini ochib beradi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modul maqsadi: Ushbu modulning asosiy maqsadi malaka oshirish kursi tinglovchilarining Davlat ta’lim talablari va “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirishga oid bilimlar berish va amaliyotda qo‘llash kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat.

Shuningdek, tinglovchilarga “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va Davlat dasturini joriy etishning samarali usullar” moduli asosida integratsiyalashgan ta’limiy faoliyatning tashkil etish haqida ma’lumotlar berishdan iborat.

Kutilayotgan natijalar: Tinglovchilar “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va Davlat dasturini joriy etishning samarali usullar” modulini o‘zlashtirish natijasida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari kerak:

Tinglovchilarga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 802-sonli qarori bilan o‘z tasdig‘ini topgan “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari asosida ta’limiy faoliyatning maqsadi haqida ma’lumot berish;

Tinglovchilar Davlat o‘quv dasturi asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarining integratsiyani ta’minlash bo‘yicha bilimlarga ega bo‘ladilar;

Tinglovchilar Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari asosida tinglovchilar ta’limiy faoliyatning maqsadini integratsiya yondashuviga muvofiq belgilash ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida Davlat o‘quv dasturi asosida ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish, tashkil etish ko’nikmasiga ega bo’ladilar;

Tinglovchilar Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari maqsad va vazifalari yuzasidan tinglovchilar o‘zining taklif va tavsiyalarini berish malakasiga ega bo‘ladilar;

Tinglovchilarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida Davlat o‘quv dasturi asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini olib borish malakasiga ega bo‘ladilar.

TEXNOLOGIK XARITA

Vaqt	Mavzu	Jarayon	Resurs, tarqatma materiallar	Tinglovchining faoliyati
80 daqiqa	**Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarini amaliyotga tatbiq etish. (nazariy 2 soat)**			
20 daqiqa	Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining maqsad, vazifa va tamoyillarIlk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining maqsad, vazifa va tamoyillar.	“Aqliy hujum” metodi	Slaydlar	Tinglaydi, savol-javob, fikrlar bildiradi, ma’lumotlarni yozib oladi, fikr mulohaza yuritadi
30 daqiqa	Davlat talablarining rivojlanish sohalari. Belgilangan kutilayotgan natijalarni berilgan mavzuga maqsadli yo‘naltirish..	Ma’ruza, bahs-munozara, juftlikda va kichik guruhlarda ishlash	Tarqatma materiallar: rivojlanish sohalari tushirilgan jadval, kutilayotgan natijalar qayd etilgan varaqalar	Tinglaydi, savol-javob, fikrlar bildiradi, ma’lumotlarni yozib oladi, juftlikda va kichik guruhlarda ishlaydi
30 daqiqa	Davlat talablarining barcha rivojlanish sohalari bo‘yicha kutilayotgan natijalarini o‘rganish va resurslar tahlilini qilish	Kichik guruhlarda ishlash	Tarqatma materiallar: kutilayotgan natijalar qayd etilgan varaqalar	Tinglaydi, savol-javob, fikrlar bildiradi, ma’lumotlarni yozib oladi, kichik guruhlarda ishlaydi
80 daqiqa	**Davlat o‘quv dasturini amaliyotga tatbiq etish. (amaliy 2 soat)**			
20 daqiqa	Davlat o‘quv dasturining mazmun va mohiyati.	Kichik ma’ruza, “BBB” metodi	Ta’lim jarayonini tashkil qilish tamoyillari nomi qayd etilgan kartochkalar	Savol-javob, fikrlar bildiradi, ma’lumotlarni yozib oladi
30 daqiqa	Maktabgacha yoshdagi bolaning tayanch muhim kompetensiyalari	Kichik guruhlarda ishlash, “Case study”, metodi	Tarqatma materiallar: kompetensiyalarga doir bilimlarni mustahkamlovchi tarqatmalar	Kompetensiyaga oid muammoning yechimini topadi
30 daqiqa	Davlat o‘quv dasturi asosida rivojlanish markazlarida integratsiyalashgan ta’limiy faoliyatni tashkil etish	Kichik guruhlarda ishlash	Rivojlanish sohalarining o‘zaro bog‘liqligi qayd etilgan ishlanmalar	Har bir guruh bittadan mavzu integratsiyasi ustida ishlaydi

MA’RUZA MATNI VA O‘QUV MATERIALLARI

1-mavzu: Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarini amaliyotga tatbiq etish (80 daqiqa).

Reja:

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining maqsad, vazifa va tamoyillari.
2. Davlat talablarining rivojlanish sohalari. Belgilangan kutilayotgan natijalarni berilgan mavzuga maqsadli yo‘naltirish.
3. Davlat talablarining barcha rivojlanish sohalari bo‘yicha kutilayotgan natijalarini o‘rganish va resurslar tahlilini qilish.

Tayanch so‘z va tushunchalar: kompetensiya, rivojlanish sohalari, kichik soha, integratsiya, inklyuziv ta’lim, refleksiv faoliyat, tamoyillar

1.Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining maqsad, vazifa va tamoyillari.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Davlat standartining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari (1-ilova);

Maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi (2-ilova);

O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari (bundan buyon matnda Davlat talablari deb yuritiladi) ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni (keyingi o‘rinlarda — bolalar) har tomonlama rivojlantirish, ta’lim-tarbiya berish, maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha davlat talablarini belgilaydi.

Davlat talablari O‘zbekiston Respublikasi hududida tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’iy nazar, quyidagi ta’lim tashkilotlariga nisbatan qo‘llaniladi:

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari;

nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari;

maktabgacha yoshdagi guruhlari mavjud bo‘lgan "Mehribonlik" uylari va "Bolalar shaharchalari".

Maktabgacha ta’lim turlari uchun kadrlar tayyorlovchi o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, maktabgacha ta’lim turlari bo‘yicha pedagogik kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashni amalga oshiradigan tashkilotlar, maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiya olayotgan oilalar davlat

talablariga rioya qilishlari lozim.

Davlat talablarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

maktabgacha ta'lim — maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan xolda hamda bolada ma'naviy me'yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon;

rivojlanish — inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof- muhit ta'sirida ro'y beradigan o'zgarishlar;

rivojlanish sohasi — bola rivojlanishidagi aniq bir yo'nalishlar;

kichik soha — sohaning kichik guruhlari. Asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma'lum bir tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo'nalishini ko'rsatib beradi;

kutilayotgan natija — bolalarda kutilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar ko'rsatkichi;

bola tarbiyasining majmui — ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo'lgan bolaning bilimi, ko'nikmasi va malakasi hamda qadriyatlari;

integratsiya — bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlik;

inklyuziv ta'lim — bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon;

refleksiv faoliyat — bolada o'z tushunchalari va xatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanishi jarayoni;

"Men" konsepsiyasi — bolaning o'zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning refleksiv faoliyatining bir qismi.

Davlat talablarining maqsadi - mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy barkamol va intellektual jihatdan rivojlangan shaxsni tarbiyalash.

Davlat talablarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-

kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash.

Davlat talablari asosidagi yosh davrlari quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:
go‘daklik (tug‘ilgandan 1 yoshgacha);
erta yoshdagi bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);
kichik maktabgacha yosh (3 yoshdan 4 yoshgacha);
o‘rta maktabgacha yosh (4 dan 5 yoshgacha);
katta maktabgacha yosh (5 yoshdan 6 yoshgacha);
maktabga tayyorlov yoshi (6 yoshdan 7 yoshgacha).

Davlat talablarining asosiy tamoyillari

- Bolaning noyobligi;
- "Men" konsepsiyasi va shaxsiy ta’limini yaratishda bolaning faol roli;
- bolaning huquqlarini himoya qilish va ta’minlashning muhimligi;
- bola ta’limi va rivojlanishida kattalarning asosiy roli;
- bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli har bir bolaga moslashuvchan bo‘lib, individual variativlik asosida yondashish.

2.Davlat talablarining rivojlanish sohalari. Belgilangan kutilayotgan natijalarni berilgan mavzuga maqsadli yo‘naltirish.

Davlat talablarida belgilangan rivojlanish sohalari va ularning kichik sohalari.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarida belgilangan beshta rivojlanish sohasi va ularning kichik sohalari.

Mavzu doirasida tinglovchilarning bilimini aniqlash uchun topshiriq

Quyidagi jadvalda (1.1-jadval) Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarida belgilangan rivojlanish sohalari va kichik sohalar keltirilgan. Kichik sohalarni mos ravishda tegishli sohaga belgilang. Tinglovchilar topshiriqni bajarib bo‘lgach, jadvallar almashtiriladi va bajarilgan ish boshqa tinglovchi tomonidan tekshiriladi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarida belgilangan rivojlanish sohalari va kichik sohalar

1.1-jadval.

Kichik sohalar	Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Nutq, muloqot, o‘qish va ozish malakalari	Bilish jarayonining rivojlanishi	Ijodiy Rivojlanish
Badiiy ijodiy qobiliyatlar					
Yirik motorika					
“Men” konsepsiyasi					
Qo‘l barmoqlari mayda motorikasi					
Intellektual va anglash malakalari					
Mayda motorika					
Dunyoni badiiy tasavvur etish					
Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot					
O‘qish malakalari					
Sensomotorika					
Sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik					
Nutq va til					
Elementar matematik malakalar					
Hissiyotlar va ularni boshqarish					
Tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyat					

***Baholash mezonlari*:** *Har bir to‘g‘ri javob 1 balldan 13-15 to‘g‘ri javob a’lo, 10-12 to‘g‘ri javob yaxshi, 7-9 to‘g‘ri javob qoniqarli, 6 tadan kam javob qoniqarsiz baholanadi.*

Davlat talablari bolaning quyidagi rivojlanish sohalari bo‘yicha belgilanadi:

jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi; ijtimoiy-hissiy rivojlanish;

nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;

bilish jarayonining rivojlanishi;

ijodiy rivojlanish.

1. “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo‘linadi:

Kichik soha: Yirik motorika

Kichik soha: Mayda motorika

Kichik soha: Sensomotorika

Kichik soha: Sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik.

2. “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo‘linadi:

“Men” konsepsiyasi;

hissiyotlar va ularni boshqarish;

ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.

3.“Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo‘linadi:

nutq va til;

o‘qish malakasi;

qo‘l barmoqlari mayda motorikasi.

4. “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo‘linadi:

intellektual-anglash malakalari;

elementar matematik malakalar;

tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.

5. “Ijodiy rivojlanish” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo‘linadi:

dunyoni badiiy tasavvur etish;

badiiy-ijodiy qobiliyatlar.

Mazkur rivojlanish sohalari integratsiyasi bola rivojlanishining samarali amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Belgilangan kutilayotgan natijalarni berilgan mavzuga maqsadli yo‘naltirish.

Tinglovchilarga "Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” rivojlanish sohasining “Sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik” kichik sohasining kutilayotgan natijalarini bolalarni jismoniy tarbiya va sportga qiziqishini orttirish va jalb qilish, ularning salomatligini mustahkamlash, ularda xavfsizlik va ekologik ta’lim asoslarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’limiy faoliyatning maqsadiga olish vazifasi beriladi.

3. Davlat talablarining barcha rivojlanish sohalari bo‘yicha kutilayotgan natijalarini o‘rganish va resurslar tahlilini qilish.

1. Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi

<u>Kichik soha: Yirik motorika</u>

6-7 yosh

- bir, ikki, to‘rtta bo‘lib saflanadi, doira bo‘lib, qator bo‘lib yuradi;
- yurishda turli topshiriqlarni bajaradi;

- yengil yuguradi (shiddat bilan, to‘siqlarni yengib o‘tib, yo‘nalish va muvozanatni saqlagan holda);
- bir joyda aylanib sakraydi, oyoqlarini o‘ngga va chapga almashtirib sakraydi;
- arkonda turli usullarda sakraydi;
- arqonli narvon, yo‘g‘on arqonda yuqoriga ko‘tariladi;
- gimnastika skameykasi tagidan emaklab o‘tadi;
- ikki oyoqli velosipedda uchadi.

Kichik soha: Mayda motorika

- tasavvurdagi predmetlarni qo‘llari bilan (gul, qush, kapalak, qasr) ko‘rsatadi;
- tasmalardan turli tugunlarni tugadi;
- o‘yin faoliyati mobaynida mayda o‘yinchoqlar bilan o‘ynaydi;
- belgilangan chiziqlar bo‘ylab qog‘ozni batartib yirta oladi;
- mayda qismli mozaika va pazllarni yig‘adi.

Kichik soha: Sensomotorika

- pastdan, boshi uzra koptokni irg‘itadi;
- koptokni yer bo‘ylab ilonizi qilib irg‘itadi;
- chanada, rolikda, ikki oyoqli velosipedda uchadi;
- koptok bilan nishonni urib tushiradi (bouling);
- gardishni qo‘lida, oyog‘ida, belida aylantiradi;
- halqalarni halqa ustuniga otib tushiradi.

Kichik soha: Sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik

- o‘zining tashqi ko‘rinishiga e’tibor beradi;
- jismoniy mashqlarni mustaqil bajaradi;
- tabiat burchagidagi o‘simliklar va jonzotlarni parvarishlaydi;
- salomatlikka zararli bo‘lgan xulq shakllarini anglaydi (chekish, ichkilikbozlik, olov bilan o‘ynash va hokazo);
- bog‘chada, ko‘chada, transportda yurish qoidalariga rioya qiladi;
- piyodalar va velosipedchilar uchun yo‘l qoidalarini biladi;
- yong‘in xavfsizligi -101; milliy gvardiya — 102; tez yordam — 103; gaz xizmati -104; qutqaruv xizmati 1050-telefon raqamlarini biladi;
- xavfli vaziyatlarda qanday yo‘l tutishni biladi va tushuntiradi.

Tinglovchilarga “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” katta sohaning kutilayotgan natijalari o‘rganib chiqilgani, endilikda mazkur kutilayotgan natijalarni mashg‘ulotning maqsadi uchun yo‘naltirishni ko‘rib chiqilishi tushuntiriladi.

Davlat talablarida belgilangan rivojlanish sohalaridagi kutilayotgan natijalarni mashg‘ulot maqsadiga olinganini bitta jismoniy tarbiya mashg‘ulotining maqsadi ko‘rib chiqiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida musiqa rahbari bolalarda musiqiy qobiliyatlar bilan birga harakat, ritm, muvofiqlik, sog‘lom turmush tarzi va xavfsiz xulq-atvor ko‘nikmalarini musiqa va harakat uyg‘unligi asosida rivojlantiradi.

Musiqa rahbari **yirik motorikani** ritmik harakatlar, musiqali o‘yinlar va raqs elementlari orqali rivojlantirish yo‘llari:

- Musiqa ostida bir, ikki, to‘rtta bo‘lib saflanish, doira va qator bo‘lib yurish mashqlari bajariladi;
- Yurishda turli topshiriqlar (tez-sekin yurish, to‘xtash, burilish) musiqa tempi va xarakteriga mos holda bajariladi;
- Yengil yugurish, to‘siqlardan o‘tish mashqlari musiqaning ritmi orqali boshqariladi;
- Sakrash, aylanib sakrash va oyoqlarni o‘ng-chapga almashtirib sakrash mashqlari ritmik kuylar bilan uyg‘unlashtiriladi;
- Arqonda sakrash va emaklab o‘tish mashqlari musiqali estafeta o‘yinlari shaklida tashkil etiladi;
- Ikki oyoqli velosipedda uchishdan oldin musiqali ritmik mashqlar orqali muvozanat va harakat koordinatsiyasi mustahkamlanadi.

Musiqa rahbari **mayda motorikani** musiqali-harakatli o‘yinlar va barmoq mashqlari orqali rivojlantirish yo‘llari:

- Musiqa ostida tasavvurdagi predmetlarni qo‘llar bilan ifodalash (gul ochilishi, qush uchishi) mashqlari bajariladi;
- Barmoq gimnastikasi, ritmik chapaklar va musiqa asboblari bilan ishlash orqali barmoqlar harakatchanligi rivojlantiriladi;
- Mayda o‘yinchoqlar yordamida musiqali sahnachalar tashkil etiladi;
- Musiqa ohangiga mos holda qog‘oz bilan ishlash, mozaika va pazllarni yig‘ish jarayonida diqqat va muvofiqlik mustahkamlanadi.

Sensomotor rivojlanish musiqa rahbari tomonidan eshitish, ko‘rish va harakat sezgilari uyg‘unligi asosida ta’minlanadi. Rivojlantirish yo‘llari:

- Musiqa ostida koptokni irg‘itish va dumalatish mashqlari bajariladi;
- Koptok bilan nishonni urish mashqlari ritmik musiqalar bilan tashkil etiladi;
- Gardish aylantirish va halqalarni ustunga otish mashqlari musiqali o‘yinlar ko‘rinishida o‘tkaziladi;
- Chanada, rolikda va velosipedda uchishdan oldin ritmik tayyorlov mashqlari bajariladi.

Musiqa rahbari **sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik** ko‘nikmalarini qo‘shiqlar, musiqali sahnalar va rolli o‘yinlar orqali rivojlantirish yo‘llari:

- Shaxsiy gigiyena va tozalikka bag‘ishlangan qo‘shiqlar orqali bolalarda to‘g‘ri odatlar shakllantiriladi;
- Ertalabki badantarbiya va jismoniy mashqlar musiqa ostida mustaqil bajarishga o‘rgatiladi;
- Tabiatni asrash va parvarishlash mavzusida musiqali sahnalar tashkil etiladi;
- Zararli odatlar va xavfli vaziyatlar haqidagi qo‘shiqlar va musiqali suhbatlar orqali tushuncha beriladi;
- Yo‘l harakati va xavfsizlik qoidalari musiqali rolli o‘yinlar yordamida mustahkamlanadi;
- Favqulodda xizmat raqamlariga bag‘ishlangan **qisqa qo‘shiqlar va she’rlar** orqali yod oldiriladi;
- Xavfli vaziyatlarda qanday harakat qilish musiqali sahnachalar orqali tushuntiriladi.

Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishda musiqa rahbari maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ritmik mashqlar, raqslar va harakatli musiqiy o‘yinlar orqali koordinatsiya va muvozanatni rivojlantiradi, musiqa ostida bajariladigan mashqlar orqali sog‘lom harakat faolligini shakllantiradi, to‘g‘ri nafas olish va ovoz chiqarish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Musiqa rahbari tomonidan olib boriladigan mashg‘ulotlar orqali bolalarda ritm, harakat koordinatsiyasi, sensomotor rivojlanish, sog‘lom turmush tarzi va xavfsiz xulq-atvor kompleks ravishda shakllantiriladi. Musiqa va harakat uyg‘unligi bolalarning jismoniy rivojlanishini samarali ta’minlaydi va ularning umumiy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Nazorat savollari

1. Davlat talablari nima?
2. Davlat talablarining maqsadi...?
3. Davlat talablari asosidagi yosh davrlari qanday bosqichlarni o‘z ichiga oladi?
4. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarida belgilangan beshta rivojlanish sohasi va ularning kichik sohalari nomini ayting?
5. “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” sohasining kichik sohalari mazmunini ta’riflab bering.
6. Davlat talablarida belgilangan rivojlanish sohalaridagi kutilayotgan natijalarni berilgan mavzuga maqsadli yo‘naltirish qanday amalga oshiriladi?
7. Davlat talablaridagi kutilayotgan natijalarni tarbiyalanuvchilarda rivojlantirishda resurs ta’minoti qanday ahamiyatga ega?

2-Mavzu. Davlat o‘quv dasturini amaliyotga tatbiq etish (80 daqiqa)

Reja

1. Davlat o‘quv dasturining mazmun va mohiyati.
2. Maktabgacha yoshdagi bolaning tayanch muhim kompetensiyalari.
3. Davlat o‘quv dasturi asosida rivojlanish markazlarida integratsiyalashgan ta’limiy faoliyatni tashkil etish.

Tayanch so‘z va tushunchalar: “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, kompetensiya, pedagogning roli, fasilitator, kompetentli bola, shaxsiy (“Men” konsepsiyasini qurish).

1. Davlat o‘quv dasturining mazmun va mohiyati

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi **(**takomillashtirilgan ikkinchi nashr) O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashr qilish uchun tavsiya etilgan.

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi - bu bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan ta’lim jarayonining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, kutilayotgan natijalari, mazmuni va tashkil etilishini belgilaydigan me’yoriy hujjat. Ushbu hujjat maktabgacha ta’lim uchun turli xil individual tarzda moslashtirilgan dasturlarni ishlab chiqish uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi.

Davlat o‘quv dasturining moslashuvchanligi, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda har bir bolaning ta’lim ehtiyojlariga qaratilganligi – uning asosiy jihatlaridir.

Davlat o‘quv dasturini tatbiq etishda pedagoglarga yordam tariqasida uslubiy yordam sifatida o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar to‘plami taklif etildi. To‘plam MTV mutaxassislari tomonidan BMTning O‘zbekistondagi Xalqaro bolalar jamg‘armasi (YuNISEF) bilan birgalikda ishlab chiqilgan bo‘lib, oltita qo‘llanmani o‘z ichiga oladi: “Maktabgacha ta’lim tashkilotida dasturlarni ishlab chiqish”; “O‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida rejalashtirish”; “O‘yin orqali o‘rganish”; “O‘quv jarayonini individuallashtirish. Imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziyasi”; “Oilalar va mahalliy hokimlik bilan hamkorlik”; “Kuzatuv va baholash”.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy hujjat bo‘lib, unda maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari ifodalangan, shuningdek, bolani ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy

kompetensiyalari belgilangan.

Davlat o‘quv dasturining asosiy vazifasi — kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida bola shaxsini rivojlantirish.

1.1. Davlat o‘quv dasturining qo‘llanilishi

Davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining quyidagi maktabgacha ta’lim tashkiloti va muassasalarida qo‘llanilishi majburiydir:

- davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida;
- maktabgacha ta’lim sohasida xizmatlar ko‘rsatuvchi nodavlat MTTlarida;
- ta’lim va tarbiyaning muqobil shakllarida;
- “Mehribonlik” uylari maktabgacha ta’lim guruhlarida;
- monitoring va uzluksizlikni ta’minlash maqsadida maktabgacha va boshlang‘ich ta’limni nazorat qiluvchi boshqaruv organlarida.

1.2. MTTning maqsad va vazifalari

MTTning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan davlat talablari asosida hamda MTT davlat o‘quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish;
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va mahalliy jamoatchilik o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish.

1.3. Pedagogning roli

Davlat o‘quv dasturini amalga oshiruvchi pedagog bolaning shaxsiga hurmat ko‘rsatadi va ta’lim va tarbiya jarayonini dastur tamoyillariga muvofiq tashkil qiladi.

Pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta’lim va tarbiya berishda o‘z bilimi, ko‘nikma va resurslaridan foydalanadi. Pedagog ta’lim va tarbiya jarayonini rejalashtiradi, bolaning har tomonlama rivojlanishiga va uning salohiyatini ochishga hissa qo‘shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Buning uchun pedagog bolaning rivojlanish xususiyatlarini biladi, uning his-tuyg‘ularini tushunadi, har bir bolaning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlaydi va hisobga oladi.

Pedagog guruhda shunday inklyuziv muhit yaratadiki, unda har bir bola o‘zini ardoqli, qobiliyatli va ta’lim jarayoniga jalb qilingandek his qilishi kerak.

Pedagog bolaning mustaqil harakat qilish, natijalarga erishish va yutuqlarni amalga oshirish hamda ulardan zavqlanish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Pedagog, shuningdek, bolalarda zarurat bo‘lganida, har bir bola tarbiyachidan yordam va dalda olishi mumkinligiga ishonch hissining paydo bo‘lishiga yordam beradi.

Pedagog doimiy ravishda kasbiy kompetentligini takomillashtirish uchun o‘z

kasbiy faoliyatini hujjatlashtiradi, tahlil qiladi va baholaydi.

Pedagog bolaning, ota-onalarning va mahalliy jamoatchilik vakillarining fikri va tajribasini hurmat qiladi va o‘z ishini teng sheriklik asosida quradi.

2-BOB. MTT TA’LIM VA TARBIYA JARAYONINING MAQSAD VA TAMOYILLARI

2.1. MTT ta’lim va tarbiya jarayonining maqsadi

Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim va tarbiya jarayonining maqsadi bolaning tayanch kompetensiyalari va rivojlanish sohalarining kompetensiyalarini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishdir.

2.2. MTTda ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari

Tamoyillar O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan kutilayotgan natijalarni, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari tomonidan davlat o‘quv dasturini amalga oshirishda ta’minlanishi kerak bo‘lgan rivojlantiruvchi muhitning xususiyatlarini, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berish va rivojlantirishdagi yondashuvlarni tavsiflaydi.

MTT ta’lim va tarbiya jarayonining tamoyillari quyidagilardan iborat.

• Bolalikni o‘ziga xos qadriyat ekanligini tan olish.

Bolalik - bu muhim ahamiyatga molik yosh va hayotiy davr. Bolalikning o‘ziga xos xususiyati - bu bolalarning ta’lim olish tajribasi natijasida kattalardan ko‘ra ko‘proq o‘rganish va o‘zgarish qobiliyatiga ega ekanligidir. Bolalik – bu baxtli bolalik huquqi tan olinadigan, bola rivojlanishining muhim bosqichi.

• Bolaning huquqi, individualligi va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olish

Barcha bolalar katta imkoniyat egasi bo‘lib dunyoga keladi va har biri tug‘ma iste’dodga ega. Har bir bola o‘ziga xos individualdir. Barcha bolalar o‘z salomatligi va farovonligini himoya qilish, mustahkamlash, shuningdek, sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanish huquqiga ega.

Bolalar, shu jumladan, alohida ehtiyojli bolalar ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida tan olinadi va faoliyat turini tanlash, rejalashtirishda ishtirok etish, bilimga bo‘lgan tabiiy qiziqishlarini qondirish orqali ularning ta’lim olishi va rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

• har bir bolaning har tomonlama rivojlanishi va farovonligini ta’minlash

MT — parvarish, ta’lim va tarbiyadagi uyg‘un jarayondir u bolaning barcha rivojlanish sohalarida rivojlanishini ta’minlaydi; bu ta’lim va tarbiya jarayonida **barcha rivojlanish sohalarining o‘zaro bog‘liqligini,** shuningdek, ta’lim olishning turli xil va har tomonlama imkoniyatlari va har bir rivojlanish sohasi bo‘yicha **integratsiyani** ta’minlash zarurligini belgilaydi.

• Bolaning sog‘lig‘ini saqlash, mustahkamlash va xavfsiz muhitni

ta’minlash

Bolaning turli ehtiyojlarini, shu jumladan, harakatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish; faol o‘yinlar va kundalik jismoniy mashqlar orqali bolalar o‘zlarining his-tuyg‘ularini, yirik va mayda motorika ko‘nikmalarini rivojlantiradilar; harakatda atrof-olamni o‘rganadilar va turli predmetlarni boshqaradilar; o‘z tanasining ta’sir va imkoniyatlarini farqlay oladilar, unga g‘amxo‘rlik qilishni va sog‘lom turmush tarzini qabul qilishni boshlaydilar.

• O‘yin orqali ta’lim olish va rivojlantirish.

O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda muhim yondashuvdir. O‘yin quvonch keltiradi va bolalarni rag‘batlantiradi, ularga yangi ko‘nikma va bilimlarni o‘rganishga, o‘zini va atrofidagi dunyoni bilishga imkon beradi. MT bolaning o‘yin huquqini tan oladi, o‘yinning bola uchun muhimligini va uning individual rivojlanishi, ta’lim olishi va farovonligiga ko‘maklashishdagi pedagogik imkoniyatlari tan oladi.

• MTTning oila, mahalla, maktab bilan hamkorligi.

Bolaning farovonligi uning oila a’zolari va yaqinlaring MTT ahamiyatini tushunishiga bog‘liq. Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat o‘quv dasturida ta’lim va tarbiya jarayoniga qatnashishga jalb qilinganda va o‘z hissasini qo‘shganda bolalar yaxshiroq ta’lim oladilar va rivojlanadilar.

• Milliy, tarixiy va madaniy an’analar, ma’naviy boylikni tan olish va boshqa xalqlar madaniyatiga hurmatda bo‘lish

Bolalarning o‘z milliy madaniyati, tili, an’analarini hurmat bilan e’tirof etilganda ular yaxshiroq ta’lim oladilar va rivojlanadilar. Davlat o‘quv dasturi milliy va mintaqaviy madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda tuziladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolaning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash — bu jamoaviy ish bo‘lib, uni amalga oshirishga maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori mas’uldir.

Ushbu tamoyillar maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’lim va tarbiya jarayonining asosini tashkil etadi, pedagoglarga davlat o‘quv dasturini rejalashtirish va amalga oshirishda, har bir bolaga ta’lim berish va rivojlantirish bo‘yicha pedagogik va amaliy qarorlar qabul qilishda qo‘llanma bo‘lib hisoblanadi.

2. Maktabgacha yoshdagi bolaning tayanch muhim kompetensiyalari.

Maktabgacha yoshdagi bolaning tayanch muhim kompetensiyalari.

Kompetensiya — bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir.

Kompetentli bola o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilishi va qo‘llashi, o‘z maqsadiga erishishi va rivojlanishning har bir bosqichida yoshiga mos keladigan vazifalarni hal qilishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetentsiyaviy yondashuv bolalarning bilish bilan bog‘liq bo‘lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish, axloqiy me’yorlar va qadriyatlarni rivojlantirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, shaxsiyat (“Men» konsepsiyasi) ni shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari

- Kommunikativ
- Ijtimoiy
- Shaxsiy **(**“Men” konsepsiyasini qurish**)**
- Bilish

Kommunikativ kompetensiya — atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo‘lishni taqozo qiladi; muloqot qilish va yuzaga kelgan o‘yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati.

Bu kompetensiyaga nutqni rivojlanish ham kiradi. Nutq bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi hamda dunyoni bilishi uchun zarur vositadir. Mazmunga boy va rag‘batlantiruvchi ta’lim muhitida bolalar og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, bu ularga o‘zlariga ishonishga, boshqalar bilan munosabatlarni o‘rnatishga, dunyo haqidagi tushunchalarini shakllantirishga, mashg‘ulotlarda ishtirok etishga va loyiha ishlarini jamoa bo‘lib bajarishga yordam beradi. Bolalar kattalar va boshqa bolalar tomonidan tushunilishlari uchun o‘zlarini namoyon etishlari mumkin. Ular aytilganlarni tushunish uchun tinglaydilar va kuzatadilar; savollar va ko‘rsatmalarni eshitadilar va shunga mos javob berishadi. Ular nutqni, ayniqsa o‘qish va yozishni o‘z ichiga olgan mashg‘ulotlarga ijobiy qarashadi. Ular nutqning turli shakl va funksiyalarini biladilar, ulardan foydalanadilar va kerak bo‘lganda ularni turli xil muloqot holatlarida moslashtiradilar.

Bu kompetensiya, shuningdek, axborot olish uchun turli xil aloqa vositalari va kanallardan mustaqil foydalanish qobiliyatini o‘z ichiga oladi; ta’lim olishi va rivojlanishida foydalanish uchun kerakli ma’lumotlarni qidirish, tahlil qilish va tanlash, ularni tartibga solish, o‘zgartirish, saqlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

Ijtimoiy kompetensiya – bolaning belgilangan tartib va odob-axloq qoidalariga rioya qilgan holda tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda ishlash qobiliyati.

Bolalar:

- boshqalarni hurmat qilishni va ularning aytganlarini hisobga olishni o‘rganadi;
- guruhlarda samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalariga amal qiladi;

- yosh va individual rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda muammoli vaziyatlar uchun yechim topish harakatlarini amalga oshiradi;
- o‘zlarini guruhning bir qismi sifatida ko‘radi va o‘z huquq va majburiyatlari borligini tushunadi;
- atrofdagilarning individual farqlarini qabul qiladi;
- boshqa bolalar va kattalar bilan uyg‘unlikda yashashi mumkin;
- turli odamlar bilan muloqot qiladi, ular bilan o‘rtoqlashadi, yordam beradi va atrofdagilarning madaniy xilmaxilligini qo‘llab-quvvatlaydi.

Ijtimoiy kompetensiyaga misol:

5 yashar Zumrad birinchi marta MTTga keldi va katta guruhga kirdi. Onasi bilan xayrlashganda xafa bo‘lib, yig‘ladi. Tarbiyachi guruh bolalari bilan birga Zumradni samimiy qo‘llab-quvvatladi. Bolalar unga do‘stona tabassum qildi, o‘yinchoqlaridan birga foydalandi, faol muloqotda bo‘ldi (unga savollar berishdi, uning savollariga javob qaytarishdi). Bolalar uni o‘yinlariga qo‘shdi, guruh xonasi bilan tanishtirdi, yangi qizchaga guruhdagi gigiyena qoidalarini o‘rganishga ko‘maklashdi – ularga qanday rioya qilishni ko‘rsatib berdi. Qizcha tinchlandi, jilmaydi, kubiklardan uy qurayotgan bolalar guruhini qiziqish bilan kuzatdi.

Guruh bolalari **ijtimoiy kompetensiya orqali** guruhga yangi bola qo‘shilgan vaziyatda tengdoshlar bilan birga muloqot qilish va faoliyat yuritish qobiliyatini ko‘rsatib berdi. Guruhdagi xatti-harakat qoidalarini bilish, jamoada ishlash mahoratidan foydalandi va o‘zlarini shu jamoa a’zosi sifatida his qildi, o‘yinchoqlardan birgalikda foydalandi, MTTga moslashish davrida Zumradga yordam berish va uni qo‘llab-quvvatlash muhimligini tushundi.

Shaxsiy kompetensiya – “Men” konsepsiyasining shakllanishi bolaning o‘z-o‘ziga g‘amxo‘rlik qilish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyati hamda kundalik hayotini boshqarish va barqaror sog‘lom turmush tarzini amalda qo‘llash mahoratidir.

Bola:

- o‘zining hayotdagi o‘rnini biladi, mustaqil va o‘ziga ishonadi;
- o‘zining kuchli va zaif tomonlarini biladi, ularni bartaraf etish ustida ishlay boshlaydi;
- o‘zining boshqalardan farqli tomonlarini tushunadi;
- o‘z g‘oyalarini ilgari suradi va targ‘ib qila oladi; o‘zi uchun qaror qabul qilishni o‘rganadi;
- qanday tanlashni biladi, o‘z oldiga maqsadlar qo‘yadi;
- o‘z harakatlari uchun tashabbus va mas’uliyatni namoyon qiladi;
- o‘zining yaxshi ko‘rgan narsasi, qiziqishlari, his-tuyg‘ularini kattalar yoki bolalar bilan o‘rtoqlashadi;

- o‘sib borayotgan jismoniy, kognitiv, hissiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradi (o‘z ehtiyojlarini ifodalaydi va ularning qondirilishini ta’minlay oladi);
- hissiyotlari va xatti-harakatlarini boshqara oladi;
- sog‘lom turmush tarzi qoidalariga, madaniy-gigiyenik qoidalarga rioya qiladi;
- jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanadi, o‘z salomatligi uchun mas’uliyatni namoyon qiladi.

Shaxsiy kompetensiyaga misol:

6 yashar Olimbek mahalladagi aralash yoshdagi muqobil guruhga qatnaydi. U shaxmatga qiziqadi va tumanda o‘tkazilgan tengdoshlar o‘rtasidagi shaxmat musobaqalarida 2-o‘rinni egalladi. Olimbek MTTdagi shaxmat to‘garagi mashg‘ulotlariga katta qiziqish bilan muntazam qatnashadi. Guruhdagi ishtirokchilarga shaxmat o‘yinini bajonidil o‘rgatadi. Kichkina bolalarni shaxmat donalari bilan tanishtiradi, birgalikda shaxmat donalarining rasmini chizadi, bolalar bilan kartondan shaxmat taxtasi yasaydi, loydan shaxmat donalari yasashga yordam beradi. Olimbek guruh pedagogi bilan o‘z guruhida kichik musobaqa o‘tkazishni rejalashtiryapti.

Bu bolada **shaxsiy kompetensiya** – tanlash, o‘zi uchun maqsadlar qo‘yish, tashabbus ko‘rsatish va muvaffaqiyatga erishish qobiliyati shakllanishiga misoldir. Bolaning xatti-harakatida mas’uliyat va tashabbus ko‘zga tashlanadi. Bola do‘stlikni qadrlaydi, shaxmat o‘ynash bo‘yicha o‘z qiziqishlari, bilimlari va malakalarini tengdoshlari va kichik bolalar bilan o‘rtoqlashadi. Bola o‘z g‘oyalarini ilgari surishni va amalga oshirishni biladi.

Bilish kompetensiyasi – atrof olamni ongli ravishda idrok etish va olingan bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni o‘quv va amaliy muammolarni hal qilishda qo‘llash. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- bilim olish, o‘qish va o‘rganish qobiliyati;
- mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilish va atrof-olamni tushunish uchun kerakli ma’lumotlarni tanlash qobiliyati;
- bolalar bilan o‘zaro munosabatlarda bilim olish va o‘rganish strategiyalarini rivojlantirish qobiliyati;
- atrof olamda o‘zi uchun yangi obyektlarni o‘rganish va kashf etish qobiliyati;
- o‘yin hamda boshqa bolalar va kattalar bilan o‘zaro munosabat jarayonida kuzatish, qatnashish va tajriba o‘tkazish ko‘nikmalari;
- yangi imkoniyatlar topish qobiliyati;
- mustaqil, tanqidiy yondashadigan va ijodkor shaxsga aylanish qobiliyati;
- muammolarni tushunish va hal qilishga e’tibor qaratish, muammolarga yechim topish strategiyalarini rivojlantirish qobiliyati;

- atrof olamni tushunish va tushuntirish uchun maqsadlar qo‘yishda kognitiv qobiliyatlardan foydalanish ko‘nikmalari;
- o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini davom ettirish, o‘rganishdan zavqlanish va kashfiyotlarini boshqalar bilan bo‘lishish qobiliyati.

Bilish kompetensiyasiga misol:

Tayyorlov guruhidan 6 nafar bola (qizlar va o‘g‘il bolalar) o‘qituvchi ko‘magida “Suv – hayot manbai” loyihasini tayyorlab, butun guruhga taqdim etdi. “Fan va tabiat” markazida ular suvni isitish, sovitish va bug‘latish bo‘yicha tajriba namoyish qildi. Bolalar bilan suv haroratini qanday o‘lchashganini ko‘rsatib berdi. Bolalar ota-onalar yordamida o‘z qishlog‘idagi suv manbalarining maketini tayyorladi va guruh bilan suvga ehtiyotkor munosabatda bo‘lishni muhokama qildi. Odamlar hayotida suvdan foydalanish mavzusiga oid topishmoq va boshqotirmalar tayyorladi, guruhdagi bolalar esa ularning javobini topdi. Oxirida ota-onalardan biri, tuman ekologi qurg‘oqchilik va suvning dunyo iqlimiga ta’siri haqidagi videoni namoyish qildi.

Bu bolada **bilish kompetensiyasi –** olingan bilim, malaka, ko‘nikma va qadriyatlarni atrof olamni anglash uchun qo‘llash qobiliyatining shakllanishiga misoldir. Bolalar atrof olam (jumladan suv) haqidagi zarur axborotni izlash va tanlashni, boshqa bolalar bilan o‘ynaganda suvning xususiyatlarini tajribadan o‘tkazish va tahlil qilishni biladi, bilimlarini kreativ (ijodiy) bo‘lishish, kattalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish, suv muammosi va uning o‘z hududidagi va global miqyosdagi iqlimga ta’sirini o‘rganish strategiyasini rivojlantirish qobiliyatiga ega.

Musiqa rahbari - maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik, ma’naviy, jismoniy va nutqiy rivojlanishini musiqiy faoliyat orqali ta’minlovchi pedagog-mutaxassis hisoblanadi. U o‘z faoliyatini Davlat o‘quv dasturi, Davlat talablari va bolaning yosh hamda individual xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etadi.

Bolalarda musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishda musiqa rahbari:

- bolalarda musiqani tinglash, his qilish va tushunish qobiliyatini shakllantiradi;
- musiqiy eshituv, ritm, ohang va tembrni farqlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
- qo‘shiq kuylash, musiqa ostida harakat qilish va bolalar cholg‘u asboblarida chalishni o‘rgatadi.

Kommunikativ kompetensiyani musiqiy faoliyat orqali shakllantirishda musiqa rahbari:

- jamoa bo‘lib kuylash, musiqali o‘yinlar va sahnalashtirish orqali bolalarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
- qo‘shiqlar matni orqali nutq boyligini kengaytiradi;
- musiqa orqali hissiyotlarni ifodalashga o‘rgatadi.

Ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishda musiqa rahbari:

- bolalarni jamoada ishlashga, navbat kutishga, bir-birini tinglashga o‘rgatadi;

- bayramlar, sahna chiqishlari va musiqiy tadbirlarda ishtirok etish orqali ijtimoiy moslashuvni kuchaytiradi;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi.

Shaxsiy kompetensiya (“Men” konsepsiyasi)ni qo‘llab-quvvatlashda musiqa rahbari:

- bolalarning musiqiy ijodkorligini qo‘llab-quvvatlaydi;
- sahnada chiqish qilish orqali o‘ziga ishonchni oshiradi;
- bolaning qiziqishi va qobiliyatlarini namoyon etishiga sharoit yaratadi.

MTTlarida milliy va madaniy qadriyatlarni singdirishda musiqa rahbari maktabgacha yoshdagi bolalar bilan milliy qo‘shiqlar, raqslar va kuylar bilan tanishtiradi, xalq og‘zaki ijodi namunalari orqali vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantiradi, milliy bayram va an’analarni musiqiy tadbirlar orqali mustahkamlaydi.

Pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini olib borishda musiqa rahbari tarbiyachilar bilan integratsiyalashgan mashg‘ulotlar tashkil etadi, ota-onalarga bolalarning musiqiy rivoji bo‘yicha tavsiyalar beradi, bayram va ochiq mashg‘ulotlarda ota-onalarni jalb etadi.

3. Davlat o‘quv dasturi asosida rivojlanish markazlarida integratsiyalashgan ta’limiy faoliyatni tashkil etish.

Bolalarning bilim, ko‘nikma va malakalari, ularning har tomonlama rivojlantirish uchun turli integrallashgan ta’limiy faoliyatlarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Aynan integrallashgan ta’limiy faoliyatlarda bolalarning o‘zlashtirayotgan bilim, ko‘nikma va malakalari, ularning har tomonlama rivojlanayotganliklarini ya’ni, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarida ko‘rsatilgan kutilayotgan natijalarning bola tomonidan o‘zlashtirilayotganini kuzatish, o‘rganish, tahlil qilish imkonini beradi.

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida rivojlanish markazlarida olib boriladigan integratsiyalashgan ta’limiy faoliyat bolalarni ongli ravishda va samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Rivojlanish markazlarida bola shaxsining rivojlanishida Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining rivojlanish sohalariga integratsiyalashgan yondashuv bola rivojlanishining yaxlitligini ta’minlaydi.

Rivojlanish markazlari pedagoglar bolalarga ular nima bilan va qayerda shug‘ullanishni xohlayotgan bo‘lsalar, shunday imkoniyatni taqdim etish uchun imkon yaratadi. Har bir markazda mavjud bo‘lgan materiallar bolalarga predmetlarni o‘rganish, turli o‘yinli vaziyatlarda o‘z g‘oyalarini yaratish va tekshirish, o‘rganish yordamida o‘z savollariga javoblarni topishga imkon beradi. Rivojlanish markazlarida bolalar integrativ shaklda ta’lim oladi, ya’ni har bir

rivojlanish muhiti boshqa rivojlanish muhiti bilan uzviy bog‘liqlik asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun ta’lim jarayoni uzviy bog‘langan va integrallashgan bo‘lishi kerak.

Guruhlarda rivojlanish markazlarida bolaga o‘z tanlovini mustaqil amalga oshirishni ta’minlaydigan vaziyat yaratiladi. Har bir guruhning xonasi bir necha markazlarga bo‘lingan va ularning har birida o‘rganish va o‘ynash uchun yetarlicha materiallar mavjud. Ta’limiy-tarbiyaviy jarayonda bolaning yosh xususiyatlari, uning qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari, tajribasi hisobga olinadi, bu bolani “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturini o‘zlashtirishdagi maqsadlarga erishishida yordam beradi.

Rivojlanish markazlari bolaga hissiy, jismoniy, ijtimoiy va intellektual kabi barcha sohalarda rivojlanishiga yordam beradi. Masalan, “Nutq va til” markazida bolalar o‘yin davomida muloqot qilib, ona tilida so‘zlashadilar, shunda nutqning moslashuvchanligini oshiradilar, so‘z zaxirasini ko‘paytiradilar, yangi tushunchalarni o‘zlashtiradilar, bolalar mazmunli rasmlar orqali hikoyalar tuzadilar, o‘qilgan badiiy asar yuzasidan savol-javoblarda qatnashadilar, nutq o‘stirish bo‘yicha ta’limiy o‘yinlar o‘ynaydilar.

Markazda bolalarning do‘stlari orasida o‘z fikrlarini bera olish, mavzu asosida hikoyalar tuzish, guruh muhokamasida muloqotga kirishish va tinglab ishtirok etish imkoniyati mavjud. Boladagi ko‘pchilik orasida tortinchoqlik odatlari kichik guruhlarda ishlash jarayonida yo‘qola boshlaydi. Guruh muhokamasida muloqotga kirishish bolaning tengdoshlari bilan samimiy munosabatda bo‘lish, do‘stlariga yordam berish, kelishib o‘ynash, o‘rtoqlariga yaxshi munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini tarbiyalaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi qaysi hujjat asosida ishlab chiqilgan?
2. MTTning maqsad va vazifalari haqidagi tushunchangiz ayting.
3. Dasturda ta’lim jarayonining maqsadi qanday yoritilgan?
4. MTT ta’lim jarayonining qanday tamoyillari bor?
5. Kompetensiyalarning tarkibiy elementlari?
6. Kompetentli bola iborasini qanday tushunasiz?
7. Pedagoglar maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari haqida nimalarni bilishlari kerak?
8. Davlat dasturi asosida rivojlanish markazlarida integratsiyalashgan ta’limiy faoliyat qanday tashkil etiladi?

O‘Z-O‘ZINI TEKSHIRISH UCHUN TEST SAVOLLAR

1.	Asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma’lum bir tomonlarini o‘z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo‘nalishini ko‘rsatib beradinima deb ataladi?	Kichik soha	Rivojlanish sohasi	Integratsiya	“Men” konsepsiyasi	1
2.	Bolaning o‘zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning refleksiv faoliyatining bir qismi nima deb ataladi?	“Men” konsepsiyasi	Refleksiv faoliyat	Rivojlanish sohasi	Maktabgacha ta’lim	1
3.	Ma’lum bir yosh davriga xos bo‘lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo‘lgan bolaning bilimi, ko‘nikmasi va malakasi hamda qadriyatlari nima deb ataladi?	Bola tarbiyasining majmui	“Men” konsepsiyasi	Refleksiv faoliyat	Maktabgacha ta’lim	1
4.	Davlat talablarida ta’lim-tarbiya qaysi qadriyatlar asosida amalga oshirilishi belgilangan?	milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatla	milliy qadriyatlar	umuminsoniy qadriyatlar	zamonaviy texnologiyalar asosida	1
5.	Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining asosiy vazifasi nimadan iborat?	Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta’lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash	Faqat bolalarni maktabga tayyorlash	O‘qituvchilarni ish bilan ta’minlash	O‘quv rejasini qisqartirish	1
6.	Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining vazifalari qaysilar?	milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta’lim- tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish	qadriyatlar asosida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash	fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash	har bir bolaga yakka tartibda yondashuvni tashkil etish	1
7.	Bolaning rivojlanish xaritasi yuritilishini nazorat qilish kitobining izoh qismida qanday vazifalar qayd etiladi?	Bolalar rivojlanishida aniqlangan bo‘shliqlar asosida yakka tartibda olib boriladigan vazifalar qayd etiladi.	Bolalar rivojlanishida aniqlangan kamchiliklar.	O‘zlashtirmagan bolalar soni yoziladi.	Bolalarni kuzatish natijalari yoziladi.	1
8.	D - doimiy ravishda kuzatiladi mezoni qanday mazmunni belgilaydi?	Bola asosiy ko‘nikmalarni namoyon qiladi /	Bolaning xatti-harakatlari tasodifiy	Bolaning xatti-harakatlari	Bolaning xatti-harakatlari	1

		xatti-harakatlari talab darajasida, mustaqil tarzda takrorlaydi		kamdan kam kuzatiladi.	ba’zan kuzatiladi	
9.	Davlat o‘quv dasturida ta’lim jarayonining tamoyillari nimalardan iborat?	ta’lim jarayonida rivojlanish sohalarining o‘zaro bog‘liqligi	bolani jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk tarbiyalash	komil inson etib maktab ta’limiga tayyorlash	MTMning oila va mahalla o‘rtasidagi hamkorligi	1
10.	Davlat talablarining tamoyillari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.	bolaning noyobligi	“Men” konsepsiyasida kattalarning roli	kadrlarni sifatli va maqsadli tayyorlash	ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish	1
11.	Musiqa rahbari yirik motorikani rivojlantirishda qaysi vositalardan foydalanadi?	Ritmik harakatlar, musiqali o‘yinlar va raqslar orqali	Faqat qo‘shiqlarni tinglash orqali	Tasviriy san’at mashg‘ulotlari orqali	Kitob o‘qish orqali	1
12.	Arqonda sakrash va emaklab o‘tish mashqlari qaysi shaklda samarali tashkil etiladi?	Musiqali estafeta o‘yinlari shaklida	Mustaqil o‘yin tarzida	Individual topshiriqlar orqali	Faqat tarbiyachi ko‘rsatmasi bilan	1
13.	Musiqa rahbari mayda motorikani rivojlantirishda qaysi mashqlardan foydalanadi?	Barmoq gimnastikasi va ritmik chapaklar	Matematik mashqlar	Hikoya tuzish	Kuzatuv mashqlari	1
14.	Kommunikativ kompetensiya musiqiy faoliyat orqali qanday shakllantiriladi?	Jamoa bo‘lib kuylash va musiqali o‘yinlar orqali	Yakka mashqlar orqali	Musiqa tinglash orqali	Yozma topshiriqlar orqali	1
15.	Qo‘shiqlar matni bolalarda nimani rivojlantiradi?	Nutq boyligini	Matematik tafakkurni	Jismoniy kuchni	Texnik qobiliyatlarni	1
16.	Bayram va sahna chiqishlarida ishtirok etish bolalarda qaysi kompetensiyani rivojlantiradi?	Ijtimoiy kompetensiyani	Bilish kompetensiyasini	Ekologik madaniyatni	Gigiyenik ko‘nikmalarni	1

MODUL YUZASIDAN MAJIAKA ISHI MAVZULARI:

1. Maktabgacha ta’limda musiqa va harakat uyg‘unligi asosida jismoniy rivojlanishni ta’minlash.
2. Musiqa rahbari faoliyatida yirik motorikani rivojlantirish metodlari.
3. Musiqali o‘yinlar orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirish.
4. Musiqa mashg‘ulotlarida mayda motorikani rivojlantirishning pedagogik asoslari.
5. Sensomotor rivojlanishda musiqa rahbarining o‘rni.
6. Musiqa orqali bolalarda sog‘lom odatlarni shakllantirish yo‘llari.
7. Musiqa rahbari faoliyatida sog‘lom harakat faolligini tashkil etish.
8. Musiqali sahnalar orqali ekologik tarbiyani rivojlantirish.
9. Musiqa mashg‘ulotlarida nafas va ovoz chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
10. Maktabgacha ta’limda musiqali faoliyat orqali sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish.
11. Davlat o‘quv dasturi asosida musiqiy ta’limni tashkil etish.
12. Musiqiy faoliyat orqali bolalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish.
13. Milliy musiqa orqali vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish.
14. Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy eshituv va ritmni rivojlantirish.
15. Musiqa rahbari va tarbiyachi hamkorligida integratsiyalashgan mashg‘ulotlar.
16. Bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishda musiqaning ahamiyati.
17. Maktabgacha ta’limda musiqiy bayramlarni tashkil etish metodikasi.
18. Musiqa orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish.
19. Musiqa rahbarining ota-onalar bilan hamkorlik shakllari.
20. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sahna madaniyatini shakllantirish.
21. Musiqiy faoliyatda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.
22. Musiqa rahbarining kasbiy mahoratini oshirish yo‘llari.

TARQATMA MATERIALLAR

1-TARQATMA

"Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi"	**Yirik motorika;** **Mayda motorika;** **Sensomotorika;**
"Ijtimoiy-hissiy rivojlanish"	**"Men" konsepsiyasi;** **hissiyotlar va ularni boshqarish;** **ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**
"Nutq, muloqot, ўqish va yozish malakalari"	**Nutq va til;** **O‘qish malakasi;** **Qo‘l barmoqlari mayda motorikasi**
"Bilish jarayonining rivojlanishi"	**Intellektual-anglash malakalari;** **Elementar matematik malakalar;** **Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faolivat.**
"Ijodiy rivojlanish"	**Badiiy tasavvur etish;** **Badiiy-ijodiy qobiliyatlar**

2-TARQATMA

1.1-jadval

Kichik sohalar	Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari	Bilish jarayonining rivojlanishi	Ijodiy rivojlanish
Badiiy ijodiy qobiliyatlar					
Yirik motorika					
“Men” konsepsiyasi					
Qo‘l barmoqlari mayda motorikasi					
Intellektual va anglash malakalari					
Mayda motorika					
Dunyoni badiiy tasavvur etish					
Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot					
O‘qish malakalari					
Sensomotorika					
Sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik					
Nutq va til					
Elementar matematik malakalar					
Hissiyotlar va ularni boshqarish					
Tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyat					

3-TARQATMA

Oylar	Oy mavzusi	Oy haftalari	Hafta mavzulari Yosh guruhlari			
			Kichik guruh	O‘rta guruh	Katta guruh	Tayyorlov guruhi
Sentyabr	O‘zbekiston – mening Vatanim	1-hafta	Men va bolalar bog‘chasi	Men va bolalar bog‘chasi	Mening qadrdon O‘zbekistonim	Mening qadrdon O‘zbekistonim
		2-hafta	Mening shahrim	Mening shahrim – mening mahallam	Mening shahrim – mening mahallam	Mening shahrim – mening mahallam
		3-hafta	Men va mening oilam	Men va mening oilam	Men va mening oilam	Men va mening oilam
		4-hafta	Men va mening do‘stlarim	Men va mening do‘stlarim	Men va mening do‘stlarim	Men va mening do‘stlarim
Oktyabr	Kuz bo‘yoqlari	1-hafta	Oltin kuz	Oltin kuz	Mavsumiy o‘zgarishlar Ko‘chmanchi qushlar	Mavsumiy o‘zgarishlar Ko‘chmanchi qushlar
		2-hafta	Sabzavot va mevalar	Tabiat omborxonasi: sabzavotlar, mevalar, rezavor mevalar	Tabiat omborxonasi: sabzavotlar, mevalar, rezavor mevalar	Tabiat omborxonasi: sabzavotlar, mevalar, rezavor mevalar
		3-hafta	Non hammasiga sarkor	Non hammasiga sarkor	Non hammasiga sarkor	Non hammasiga sarkor
		4-hafta	O‘zbekistonning oq oltini	O‘zbekistonning oq oltini	O‘zbekistonning oq oltini	O‘zbekistonning oq oltini
Noyabr	Transport, ko‘cha harakati qoidalari (KHQ) Hayot xavfsizligi asoslari (HXA)	1-hafta	Transport bilan tanishuv	Yer usti transporti	Havo, suv va yer usti transporti	Havo, suv va yer usti transporti
		2-hafta	Rangli svetofor	Rangli svetofor	Ehtiyotkor piyoda haftasi	Ehtiyotkor piyoda haftasi
		3-hafta	Tez yordam va o‘t o‘chirish yordami	Shoshilinch (tezkor) harakat xizmatlari	Shoshilinch (tezkor) harakat xizmatlari	Shoshilinch (tezkor) harakat xizmatlari
		4-hafta	Bizning yaxshi ishlarimiz	Barcha kasblar muhim	Bizning yaxshi ishlarimiz	Bizning yaxshi ishlarimiz
Dekabr	Qish	1-hafta	Qish	Qish.	Qish Konstitutsiya kuni	Qish Konstitutsiya kuni
		2-hafta	Sog‘lom tanda – sog‘lom ruh	Sog‘lom tanda – sog‘lom ruh	Sog‘lom tanda – sog‘lom ruh	Sog‘lom tanda – sog‘lom ruh
		3-hafta	Kiyim-bosh	Mavsumiy kiyim-bosh va poyabzal	Mavsumiy kiyim-bosh va poyabzal	Mavsumiy kiyim-bosh va poyabzal
		4-hafta	Yangi yil nima?	Yangi yil nima?	Yangi yil nima?	Yangi yil nima?

4-TARQATMA

5 yashar Zumrad birinchi marta MTTga keldi va katta guruhga kirdi. Onasi bilan xayrlashganda xafa bo‘lib, yig‘ladi. Tarbiyachi guruh bolalari bilan birga Zumradni samimiy qo‘llab-quvvatladi. Bolalar unga do‘stona tabassum qildi, o‘yinchoqlaridan birga foydalandi, faol muloqotda bo‘ldi (unga savollar berishdi, uning savollariga javob qaytarishdi). Bolalar uni o‘yinlariga qo‘shdi, guruh xonasi bilan tanishtirdi, yangi qizchaga guruhdagi gigiyena qoidalarini o‘rganishga ko‘maklashdi – ularga qanday rioya qilishni ko‘rsatib berdi. Qizcha tinchlandi, jilmaydi, kubiklardan uy qurayotgan bolalar guruhini qiziqish bilan kuzatdi.

6 yashar Olimbek mahalladagi aralash yoshdagi muqobil guruhga qatnaydi. U shaxmatga qiziqadi va tumanda o‘tkazilgan tengdoshlar o‘rtasidagi shaxmat musobaqalarida 2-o‘rinni egalladi. Olimbek MTTdagi shaxmat to‘garagi mashg‘ulotlariga katta qiziqish bilan muntazam qatnashadi. Guruhdagi ishtirokchilarga shaxmat o‘yinini bajonidil o‘rgatadi. Kichkina bolalarni shaxmat donalari bilan tanishtiradi, birgalikda shaxmat donalarining rasmini chizadi, bolalar bilan kartondan shaxmat taxtasi yasaydi, loydan shaxmat donalari yasashga yordam beradi. Olimbek guruh pedagogi bilan o‘z guruhida kichik musobaqa o‘tkazishni rejalashtiryapti.

Tayyorlov guruhidan 6 nafar bola (qizlar va o‘g‘il bolalar) o‘qituvchi ko‘magida “Suv – hayot manbai” loyihasini tayyorlab, butun guruhga taqdim etdi. “Fan va tabiat” markazida ular suvni isitish, sovitish va bug‘latish bo‘yicha tajriba namoyish qildi. Bolalar bilan suv haroratini qanday o‘lchashganini ko‘rsatib berdi. Bolalar ota-onalar yordamida o‘z qishlog‘idagi suv manbalarining maketini tayyorladi va guruh bilan suvga ehtiyotkor munosabatda bo‘lishni muhokama qildi. Odamlar hayotida suvdan foydalanish mavzusiga oid topishmoq va boshqotirmalar tayyorladi, guruhdagi bolalar esa ularning javobini topdi. Oxirida ota-onalardan biri, tuman ekologi qurg‘oqchilik va suvning dunyo iqlimiga ta’siri haqidagi videoni namoyish qildi.

5-TARQATMA

JISMONIY RIVOJLANISH VA SOG‘LOM TURMUSH TARZINING SHAKLLANISHI			
6-7 YOSH			
YIRIK MOTORIKA	**MAYDA MOTORIKA**	**SENSOMOTORIKA**	**SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA XAVFSIZLIK**
bir, ikki, to‘rtta bo‘lib saflanadi, doira bo‘lib, qator bo‘lib yuradi; yurishda turli topshiriqlarni bajaradi; yengil yuguradi (shiddat bilan, to‘siqlarni yengib o‘tib, yo‘nalish va muvozanatni saqlagan holda); bir joyda aylanib sakraydi, oyoqlarini o‘ngga va chapga almashtirib sakraydi; arqonda turli usullarda sakraydi; arqonli narvon, yo‘g‘on arqonda yuqoriga ko‘tariladi; ikki oyoqli velosipedda uchadi.	tasavvurdagi predmetlarni qo‘llari bilan (gul, qush, kapalak, qasr) ko‘rsatadi; arqonlardan turli tugunlarni tugadi; o‘yin faoliyati mobaynida mayda o‘yinchoqlar bilan o‘ynaydi; belgilangan chiziqlar bo‘ylab qog‘ozni batartib yirta oladi; mayda qismli mozaika va pazllarni yig‘adi.	pastdan, boshi uzra koptokni irg‘itadi; koptokni yer bo‘ylab ilonizi qilib irg‘itadi; chanada, rolikda, ikki oyoqli velosipedda uchadi; koptok bilan nishonni urib tushiradi (bouling); gardishni qo‘lida, oyog‘ida, belida aylantiradi; halqalarni halqa ustuniga otib tushiradi.	o‘zining tashqi ko‘rinishiga e’tibor beradi; jismoniy mashqlarni mustaqil bajaradi; tabiat burchagidagi o‘simliklar va jonzotlarni parvarishlaydi; salomatlikka zararli bo‘lgan xulq shakllarini anglaydi (chekish, ichkilikbozlik, olov bilan o‘ynash va hokazo); bog‘chada, ko‘chada, transportda yurish qoidalariga rioya qiladi; piyodalar va velosipedchilar uchun yo‘l qoidalarini biladi; yong‘in xavfsizligi — 101; milliy gvardiya — 102; tez yordam — 103; gaz xizmati — 104; qutqaruv xizmati 1050-telefon raqamlarini biladi; xavfli vaziyatlarda yo‘l tutishni biladi va tushuntiradi; supermarketda, shaharda, qishloqda, dalada yo‘qolib qolsa, o‘zini qanday tutish kerakligini biladi.

IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANISH		
6-7 YOSH		
«Men» konsepsiyasi	**Hissiyotlar va ularni boshqarish**	**Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot**
mustaqillikka intiladi; o‘zining oilaviy, gender mansubligiga ijobiy his-tuyg‘ularni anglaydi va farqlay oladi;	o‘z hissiyotlarini nazorat qiladi; turli ijtimoiy vaziyatlarga emotsional munosabat bildiradi; o‘z hissiy holatini izohlab berishi mumkin;	kattalar va tengdoshlar bilan oson muloqotda bo‘ladi; qiyin vaziyatlarda amaliy yechim qidiradi;

o‘zining millati, tili va o‘z madaniyatining muhim elementlarini biladi; o‘ziga yuklatilgan majburiyatlar asosida faoliyatni tashkil qiladi; shaxsiy qarorlarini qabul qilishga qodir; boshqalarga namuna bo‘lishga harakat qiladi.	boshqa insonlar yoki badiiy asarlar qahramonlari hissiyoti haqida gapiradi; o‘zini yomon his etayotganlarga hamdardlik bildiradi va yupatadi.	boshqalar xatti-harakatiga o‘z taassurotlarini bildiradi; o‘zgalar yutug‘iga quvonganligini namoyon etadi; nizolarni hal etishda bir necha metodlardan foydalanadi (tinchlantiradi, o‘z o‘yinchog‘ini beradi, muloyim so‘zlar aytadi); o‘yinlar o‘ylab topadi, syujetli, rolli o‘yinlar, turli ertaklarni sahnalashtirishda ishtirok etadi.

NUTQ, MULOQOT, O‘QISH VA YOZISH MALAKALARI		
6-7 YOSH		
Nutq va til	**O‘qish malakalari**	**Qo‘l barmoqlari mayda motorikasi**
o‘z ona tilida erkin so‘zlashadi; so‘z turkumlarini yoshiga monand mustaqil, grammatik to‘g‘ri qo‘llaydi; gapdan sinonim va antonimlarni topa oladi va berilgan so‘zlarga ularni moslaydi; ko‘p ma’noli so‘zlarning turli ma’nolarini farqlaydi; turli gaplarni tuzadi; shaxsiy tajribasiga tayanib, rasm yuzasidan tasviriy hikoyani mustaqil tuzadi; turli janrdagi badiiy asarlarni ifodali hikoyalaydi; guruh muhokamasida muloqotga kirishib va tinglab ishtirok etadi; qofiyalar tuzadi, topishmoqlar topadi; nutqida xorijiy so‘zlarni qo‘llaydi; kichik she’rlarni, qofiyalarni so‘zlab berishi mumkin; yil fasllari nomini biladi (bahor, yoz, kuz, qish).	boshqa bolalarga eslab qolgan kitob mazmunini so‘zlab beradi; sodda va murakkab gaplarni nutqida qo‘llaydi; so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘ladi; bo‘g‘inli kartochkalar yordamida bo‘g‘inlardan so‘zlar tuzadi; so‘z, tovush, bo‘g‘in, gap haqida tushunchaga ega; peshlavha, kitob nomlari, rasm tagidagi yozuvlar va hokazolarni o‘qiydi; bolalar adabiyoti janri nomini biladi (ertak, she’r, hikoya); mashhur yozuvchi va shoirlar nomini biladi.	qog‘ozda to‘g‘ri chiziqlar, so‘zlar va qisqa gaplarni yozadi; daftardagi yozuv qatorlarini aniqlay oladi; rasmlarni to‘g‘ri joylashtiradi; qo‘lni uzmasdan nuqta-chiziqchalarni birlashtirib rasm chizadi; matodagi rasmni to‘qiydi; «o‘ziga» va «o‘zidan» harakatlari yo‘nalishini tushunadi; turli materiallardan murakkab namunalarni qirqadi.

BILISH JARAYONINING RIVOJLANISHI		
6-7 YOSH		
Intellektual-bilish malakalari	**Elementar matematik malakalar**	**Tadqiqiy-bilish va samarali** refleksiv **faoliyat**
Atrof olam haqida mustaqil ma’lumot izlaydi; kuzatuvlar asosida xulosa qiladi va umumlashtiradi; yil fasllari va voqea-hodisa ketma-ketligini aytadi; rasmlar bo‘yicha ketma-ketlikni saqlagan holda fikr yuritadi, mulohaza qiladi; o‘z mamlakati va uning ramzlari haqida tushunchaga ega;	hayotda son va sanoqning ahamiyatini tushunadi; geometrik shakllar va figuralarni biladi; 20 gacha bo‘lgan ayrim matematik harakatlarni bajaradi; 10 gacha qo‘shish va ayirishni sodda matematik vazifalarni yechadi (son va belgilarni qo‘llagan xolda +, -, =); son qatori haqida tushunchaga ega;	qurilmani mustaqil o‘lchaydi (balandligi, uzunligi, kengligi bo‘yicha); shaxsiy qiziqishi va kuzatuvlariga bog‘liq savollar beradi; shaxsiy taxminlari haqida gapiradi, avvalgi va hozirgi tajribasini umumlashtiradi va tushuntiradi; tadqiqotda yechimini talab etayotgan muammoni belgilaydi;

o‘z xalqining ayrim milliy an’analari va odatlarini biladi; bolalar ensiklopediyasidan foydalana oladi (kerakli ma’lumotni topa oladi); ichki va tashqi belgilarga ko‘ra predmetlarni guruhlarga ajratadi (rangi, shakli, hajmi, vazni, harakatlanish tezligi, vazifasiga qarab).	guruhlarning teng yoki teng emasligini tahlil qiladi (qanchaga ko‘p? qanchaga kam?); hajmi, balandligi va qalinligiga qarab predmetlarni ketma-ket joylashtiradi; shartli belgi asosida suyuq, sochiluvchan va qattiq materialni o‘lchaydi.	turli resurslarni qo‘llagan xolda shaxsiy kuzatuvlarni tasdiqlaydi va ta’riflaydi; atrof muhitni yaxshilashda ishtirokning muhimligini tushunadi (masalan, axlat chiqindilarini tashlash, ularni ajratish, gullar ekish, suv, elektr energiyasi va qog‘ozni asrash).

IJODIY RIVOJLANISH	
6-7 YOSH	
Dunyoni badiiy tasavvur etish	**Badiiy-ijodiy qobiliyatlar**
she’rni ifodali o‘qib bera oladi; tanish asarlarni mustaqil so‘zlab beradi, ularni sahnalashtirishda ishtirok etadi; she’riy va nasriy badiiy asarlarga munosabat bildiradi; musiqiy asarning xarakterini aniqlashga qodir; bolalar shoiri, yozuvchisi va bastakorlari hamda ularning asarlarini biladi; tasviriy san’at turlarini farqlaydi.	turli predmetlardan kompozitsiyalar yaratadi; individual va jamoada qo‘shiq ayta oladi; raqsda harakatlariga jilo bergan holda shaxsiy namuna yaratishi mumkin; musiqiy asboblarda yakkaxon yoki orkestrda jo‘r bo‘lib chalishi mumkin; g‘oya yaratadi va tatbiq etadi; maqsadga erishishda o‘rindosh sifatida turli predmetlar qo‘llaydi; turli spektakllarda rol ijro etib ishtirok etadi; olamni o‘zgartirishda insonning yaratuvchi rolini anglaydi; buyumlarni ikkilamchi qo‘llashda g‘oyalar taklif etishi mumkin.

6-TARQATMA

Rivojlanish sohalariga oid maqsadlar		
	Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi	
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	
	Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari	
	Bilish jarayonining rivojlanishi	
	Ijodiy rivojlanish	

ATAMALAR IZOHLI LUG‘ATI

Kompetentlik (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish.

Kommunikativ qobiliyat – pedagogning samimiy muloqotda bo‘lishi, muloqotni to‘g‘ri tashkil etishi, ta’lim oluvchilar bilan do‘stona muloqot o‘rnatish uchun to‘g‘ri yo‘l topa bilishi, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan maqsadga muvofiq o‘zaro aloqa bog‘lashiga qaratilgan qobiliyatni ifodalovchi tushuncha.

Pedagogik bilim – bolalarni o‘qitish va tarbiyalash, ta’lim hamda tarbiya jarayonini tashkil etish asosida shaxsni har tomonlama kamol toptirishga doir tizimlangan ma’lumotlar yig‘indisi.

Pedagogik qobiliyat – pedagogik faoliyatni oqilona tashkillashtirish va olib borilishiga imkon beradigan, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta’minlashda ahamiyatli bo‘lgan pedagogga xos xususiyatlar.

Bola kompetensiyasi –ma’lum bir yosh davriga xos bo‘lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo‘lgan bolaning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda qadriyatlari;

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – pedagogning butun diqqat-e’tiborini bola shaxsining yaxlitligiga qaratishni, uning nafaqat aql-zakovati, fuqarolik mas’uliyati hissi, balki emotsional, estetik, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish haqida g‘amxo‘rlik qilishga yo‘naltiradigan yondashuv.

Musiqaga bo‘lgan qobiliyatni rivojlantirish — bolaning tabiiy qobiliyatiga tayangan holda. Unda musiqa madaniyatining asoslarini, ijodiy faollikni shakllantirish orqali qobiliyatini rivojlantirish jarayoni.

Kreativlik (ijodiylik) (lot. creation – yaratuvchanlik, ijodkorlik) – 1) qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g‘oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon. 2) shaxsning yangi g‘oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorligini tavsiflovchi ijodiy qobiliyati.

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy èndoshish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

Kreativ vazifa – pedagogning ilg‘or tajribalar, ilmiy tadqiqot natijalarini o‘rganish va ommalashtirish, shu asosda o‘z bilimlarini boyitishga yo‘naltirilgan ijodiy faoliyat shakli.

Kreativ faoliyat – shaxs yoki jamiyatning tabiiy, ijtimoiy, ma’naviy olamini insonning maqsad, vazifalari, istaklari, ehtiyojlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda o‘zgartirishga yo‘naltirilgan, bunyodkorlikka asoslangan xatti-harakatlar tizimi.

Kreativ ta’lim – ta’lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, takomillashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv-tarbiya jarayonini ifodalovchi atama.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” O‘RQ 595-son Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 391-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 16- oktyabrdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi markaziy apparati, hududiy bo‘linmalaring nizomlari hamda vazirlik huzuridagi institutlar, tasarruf tashkilotlari va ta’lim muassasalari xodimlarining lavozim yo‘riqnomalarini yangitdan tasdiqlash to‘g‘risida” 334-sonli buyrug‘i.
5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 29-avgustdagi “Maktabgacha ta’lim tashkiloti va pedagoglarning ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 323-son buyrug‘i.
6. Grosheva I.V., S.Pak, Maxmudova D.T., SH.Nabiyeva. L.Berdiyeva, S.Raxmonberdiyev, G. Parpiyeva, V. Nazarova, M. Ismoilova “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining /uchinchi nashr/”. Toshkent, 2025 y.
7. Grosheva I.V., Olimov K.T., Nazarova V.A, Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Kenjabaeva D.A., Gulyamova N.B., Miftaeva N.A. "Kuzatish va baholash". Metodik qo‘llanma T.:2020 y.
8. Grosheva I.V., Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Ismailova M.A., Kenjabaeva D.A., Gulyamova N.B., Miftaeva N.A. "O‘yin orqali ta’lim olish". Metodik qo‘llanma T.:2020 y.
9. Shin A.V., Mirziyoeva Sh.Sh., Grosheva I.V., Mikailova U.T., Suleymanova Y.T., Daukaeva A.G., Vlasova Ye.N., Galimova E.F. “Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta’lim jarayonini rejalashtirish”. Metodik qo‘llanma. Toshkent, 2020 y.